Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan 2026-yili 9 oylik yakuni bilan amalga oshiriladigan ishlar to‘g‘risida MA’LUMOT

1. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISH.

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 2026 yilning uchinchi choragida (18,5 trln so‘m) mahsulot ishlab chiqarildi, o‘sish sur’ati 103,6 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, jami 410,3 ming tonna don (o‘sish 115,1%), 312,6 ming tonna sabzavot (102,7%), 71,9 ming tonna kartoshka (114,2%), 153,1 ming tonna poliz (108,0%), 108,8 ming tonna meva va rezavorlar (103,5%), 7,0 ming tonna uzum (101,6%), 71,4 ming tonna go‘sht (101,6%), 235,2 ming tonna sut (102,2%), 285,8 mln. dona tuxum (103,5%) ishlab chiqariladi. (2026-yil 3-choragi bilan 18,5 trln. so‘mlik ishlab chiqarilib, 2026-yil 3-choragiga nisbatan o‘sish 103,6% ni tashkil etdi).

2. QISHLOQ XO‘JALIGI EKINLARINI JOYLASHTIRISH.

Joriy yil hosili uchun 314,2 ming gektar asosiy ekin maydonlariga qishloq xo‘jaligi ekinlari joylashtirildi.

Shuningdek, takroriy ekin maydonlariga 30,1 ming gektar ekin maydonlariga qishloq xo‘jaligi ekinlari joylashtirildi.

3. PAXTACHILIK.

2026 yil hosili uchun ekilgan 80 ming gektar, shundan 38 ming 355 gektar xorijiy navlar, 36 ming 322 gektar ertapishar navlar, 4 ming 235 gektar maydonlarga istiqbolli navlar, 1 ming 88 gektar yangi navlar g‘o‘za maydonlarida bugungi kunga qadar jami 392 ming 171 tonna paxta xomashyosi terib olindi.

Soha olimlarining taklifi asosida 5 ta xorijiy va 4 ta istiqbolli hamda 2 ta yangi g‘o‘za navlari ekildi.

Hududlarning tuproq-iqlim sharoitiga moslashgan, suvsizlik va sho‘rga chidamli, ertapishar, hosildor va tola sifati yuqori bo‘lgan 4 ta g‘o‘za navlari maydoni 36,3 ming gektarga, 4 ta xorijiy navlar 36 ming 322 gektarga, 4 ta istiqbolli va 2 ta yangi g‘o‘za navlari 5 ming 323 gektarga joylashtirildi.

4. G‘ALLACHILIK.

2026-yil hosili uchun 62 ming gektar maydonda g‘alla parvarishlanib, shundan *(asosiy maydon 53 ming gektar, chorvachilik xo‘jaliklari yerlariga 9 ming gektar)* mavsum oxirida 583 ming 673 tonna g‘alla o‘rib olindi.

Mavsum davomida 62 ming gektar maydonda 2 ming 43 ta fermer xo‘jaligida o‘rim-yig‘im ishlari to‘liq yakunlanib, o‘rtacha 94,1 sentner hosil olingan. Shuningdek, 905 ta fermer xo‘jaligi tomonidan eng yuqori 100-110 sentner hosil olindi.

Shuningdek, 2026 yil hosili uchun 2043 ta fermer xo‘jaligi tomonidan 62 ming gektar maydonga g‘alla ekish ishlari amalga oshirildi.Bugungi kunda g‘alla ekilgan maydonlar to‘liq yig‘ilgan.

5. INVESTITSIYA LOYIHALARI.

Investitsiya dasturi doirasida qiymati 73,1 mlrd. so‘mlik *(48,5 mlrd. so‘m o‘z mablag‘i, 24,5 mlrd. so‘m bank krediti, 152 ming. dollar xorijiy kredit)* 32 ta loyiha ishga tushirilib, natijada 99 ta ish o‘rni yaratildi.

6. YERLARNI QAYTA FOYDALANISHGA KIRITISH.

2026 yilda 8,9 ming gektar maydonlarni qayta foydalanishga kiritish bo‘yicha 85,4 mlrd so‘m mablag‘lar talab etiladi.

Shuningdek, 65 km sug‘orish tarmoqlarini ta’mirlash, 1 km kollektor tarmoqlarini yangidan qurish va 22 km ta’mirlash belgilangan.

Qayta foydalanishga kiritilgan maydonlarga qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish va natijada 6135 ta yangi ish o‘rinlari yaratilishi bo‘yicha hisob-kitoblar ishlab chiqildi.

Joriy yilning yanvar-oktyabr oylarida 8 ming 400 gektar yer maydonlari qayta foydalanishga kiritilib, 49,1 mlrd so‘m tashabbuskorning o‘z mablag‘lari hisobidan sarflangan.

Shuningdek, 53 km sug‘orish tarmoqlarini ta’mirlash, 12 km kollektor tarmoqlarini yangidan qurish va 6 ming 392 gektar maydonda agrotexnik tadbirlar amalga oshirilib, 2 ming 802 yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Shundan, 561 gektar paxta, 948 gektar bug‘doy, 22 gektar sabzavot, 165 gektar poliz, 301 gektar moyli, 939 gektar dukkakli, 2,3 ming gektar ozuqa, 76 gektar makkajo‘xori, 26 gektar sholi, 33 gektar dorivor, 674 gektar boshqa ekinlar ekildi.

7. AHOLI BANDLIGI.

Sohada aholi bandligini ta’minlash doirasida 28 ming ish o‘rinlari yaratiladi va ***yanqiish.mehnat.uz*** platformasiga kiritilib, soliq hisobotlarida aks ettirilishini ta’minlash choralari ko‘riladi.

Bugungi kunda yanvar-oktyabr oylarida 43 ming 608 ish o‘rni yaratilgan bo‘lib, ***yanqiish.mehnat.uz*** platformasiga kiritishga va soliq hisobotlarida aks ettirishga erishildi.

8. QISHLOQ XO‘JALIGI TEXNIKALARI.

Joriy yilda qiymati 321 milliard so‘mlik 661 ta qishloq xo‘jaligi texnikasi xarid qilinadi va bugungi kunda qiymati 409 milliard so‘mlik 1529 ta qishloq xo‘jaligi texnikasi xarid qilingan.